



BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINI INFORMATIKADAN DARS OLIB BORISH SHAKLLARIGA TAYYORLASH

B.YE.Sabirov - Nizomiy nomidagi TDPU o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinif o‘qituvchilarini informatikadan dars olib borish shakllariga tayyorlash nuqtai nazaridan sinif-dars va sinfdan tashqari dars shakllari yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinif, boshlang‘ich sinif o‘qituvchi, sinif-dars, sinfdan tashqari dars shakllari, informatika, kompyuter, axborot texnologiyalari, to‘garak, fakultativ mashg‘ulot, musobaqa va olimpiada, kompyuter-shou, ekskursiya.

Insoniyat yuksak rivojlangan texnika va axborot texnologiyalari asriga qadam qo‘ydi. Shunga ko‘ra yoshlar murakkab tizimdagi texnika va texnologiyalar bilan muomala qilib, katta hajmdagi axborotlar oqimidan o‘rinli foydalanishga mas‘uliyat bilan yondashadigan, har tomonlama chuqur bilim va malakaga ega bo‘lishlari zarur. Shunday ekan kompyuter texnologiyasini o‘rganishga alohida e‘tibor berish talab qilinmoqda. Bu o‘rinda informatika va axborot texnologiyalari fanining o‘rni alohida hisoblanadi.

Hozirgi kunda pedagogika oliy ta‘lim muassasalarning boshlang‘ich ta‘lim fakultetlarida “Boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalari” nomli o‘quv fani joriy etilgan.

Mazkur o‘quv fanining maqsadi, boshlang‘ich sinif o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishni ta‘minlash, ularning axborot kompetentligini shakllantirish, boshlang‘ich ta‘lim fanlarini o‘qitish jarayonida axborot texnologiyalarni qo‘llash uchun zarur bo‘ladigan pedagogik bilim, ko‘nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdan iboratdir.

Bularga qo‘shimcha ravishda yana talabalarda ya‘ni bo‘lajak o‘qituvchilarda informatika va axborot texnologiyalari fanidan sinif va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar, turli qiziqarli tadbirlar o‘tkazishga doir malaka va ko‘nikmalarning shakllantirilishi maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bu nafaqat boshlang‘ich ta‘lim bo‘g‘iniga qaratilgan o‘quv fanlarini balki informatikani o‘qitishning mazmuni va shakllarini tanlash tamoyillarini, olib boriladigan boshqa o‘quv fanlari bilan o‘zaro aloqasini ta‘minlash, kompyuter va axborot



texnologiyalaridan malakali foydalana olish, maktab kompyuter sinfi sharoitida ishlash usullarini egallashlarga yordam beradi.

Shularni nazarda tutgan holda, quyida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga metodik yordam sifatida informatika fanidan darslar olib borishning sinf-dars va sinfdan tashqari shakllarini keltirib o'tamiz.

Informatika darsni olib borishning sinf-dars shakllari.

Kompyuter texnikasidan foydalanmagan holda, bir dars davomida boshlang'ich sinflarda olib boriluvchi turli o'quv fanlari bilan integratsiyalashgan holda informatika ta'limini amalga oshirish. Bu yerda integratsiyasi ta'minlangan turli o'quv fanlari mazmunida qaraluvchi amaliy masalalardan bir dars davomidagi informatika ta'limida foydalanish nazarda tutiladi.

Sinf o'quvchilarini guruhlariga bo'lmasdan darsni boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi olib boradigan bo'lsa, u holda boshlang'ich sinf o'qituvchisi, informatika ta'limni boshlang'ich sinflarning boshqa o'quv fanlari tarkibida integratsion tarzda berib borish, boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan oson o'zlashtiriladigan atama va tushunchalar majmuasini tanlash va bu tushunchalarning qaysi biri qaysi fan doirasida berilishini aniqlash, tanlangan atama va tushunchalarni uzluksiz, tizimli ravishda o'quvchilar ongida shakllantirish metodikasini egallashi kerak bo'ladi.

Kompyuter texnikasi yordamida sinf o'quvchilari guruhlariga bo'lingan holda bir dars davomida informatika ta'limini amalga oshirish.

Yuqoridagi kabi turli o'quv fanlari bilan integratsiyalashgan holda informatika ta'limini amalga oshirish yondashuviga tayangan holda, ularning yosh va psixofiziologik xususiyatlari hamda sanitariya-gigiyena qoidalariga ko'ra, ularning 15–20 daqiqalik kompyuterda amaliy ishlashini tashkil qilish mumkin bo'ladi.

Sinfdagi o'quvchilarning umumiy sonidan kelib chiqqan holda o'quvchilarni ikki yoki uch guruhga bo'lish mumkin. Bir guruh o'quvchilar bilan an'anaviy dars sinfida boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi, ikkinchi guruh bilan esa bevosita informatika fani o'qituvchi maktab kompyuter xonasida darslar olib boradi. Dars uchun zarur bo'ladigan nazariy ma'lumotlar boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi tomonidan amalga oshirilsa, uning amaliy tatbiqlariga doir tayyorlangan pedagogik dastur vositalari yordamida informatika fani o'qituvchisi o'quvchilar bilan belgilab qo'yilgan vaqtdan oshmagan holda amaliy ishlarni olib boradi. Ko'rsatilgan vaqtdan so'ng o'quvchilar guruhi biri ikkinchisiga almashadi. Boshlang'ich va informatika ta'limi o'qituvchilarining birgalikdagi faoliyati bu yerda ahamiyatga molik jihat sifatida baholanadi.

**Informatika darsni olib borishning sinfdan tashqari shakli.**

To‘garak. Informatikadan sinfdan tashqari ishlar boshlang‘ich ta‘limning 2-sinfdan boshlab shu fanga qiziqishi bor o‘quvchilar bilan ko‘proq ishlash maqsadida tashkil etiladi. To‘garak mashg‘ulotlari oldindan tasdiqlangan reja asosida tizimli va o‘quvchilarning doimiy tarkibi bilan bir hafta ichida ikki marta olib borilib, mashg‘ulotlarning davomiyligi 50–60 daqiqadan oshmasligi kerak bo‘ladi.

O‘quvchi kompyuter bilan bevosita uzluksiz 15–20 daqiqa ishlagandan so‘ng jismoniy va ko‘z uchun tavsiya qilingan mashqlarni bajarishga ahamiyat qaratiladi. O‘quvchilarning yoshidan qat‘iy nazar mashg‘ulot davrida bitta kompyuterdan ikki yoki undan ortiq o‘quvchi foydalanishga yo‘l qo‘ymaslik kerak. To‘garak mashg‘ulotlari asosiy darslar tugaganidan so‘ng bir soatdan keyin yoki oldindan belgilab qo‘yilgan vaqtda boshlanishi maqsadga muvofiq.

Tashkil etiladigan har bir to‘garak unda olib boriladigan asosiy faoliyat turiga ko‘ra mos ravishda biror nomga ega bo‘lishi tavsiya etiladi. Masalan, “Kompyuter-rassom”, “Yosh dasturchi”, “Kompyuter-dizayner”, “Yosh jurnalist”, “Internet olami” va boshqa.

Fakultativ mashg‘ulot. Informatika o‘quv fani dasturida ko‘rsatilgan biror mavzuni o‘quvchilar kengroq o‘zlashtirishlari uchun tashkil etiladi. Mashg‘ulotga butun sinf o‘quvchilari jalb qilinib, hafta davomida bir marta mashg‘ulotlar maktab kompyuter xonasida o‘tkaziladi. Mashg‘ulotlarni boshlang‘ich sinf va informatika fani o‘qituvchisi birgalikda olib borishi mumkin.

Musobaqa va olimpiada. Sinf o‘quvchilari orasida informatika fanini yaxshi o‘zlashtirgan va bilag‘onlarni aniqlash maqsadida turli musobaqalar tashkil etiladi. Musobaqa mavzusi va o‘tkazilish vaqti oldindan belgilab qo‘yilishi zarur. Musobaqalarni o‘tkazish shakllari turli xil bo‘lib, masalan, o‘yin shaklida (“Kim?, Nima?, Qayerda?”, “Millioner bo‘lishni kim xohlaydi?” va boshqa), topshiriqlarga yozma javob berish shaklida, musobaqa mavzusiga doir kompyuterda yoki qog‘ozda rasm chizish shaklida va boshqa shu kabi o‘quvchilar tomonidan egallangan bilim, malaka va ko‘nikmalarni yuzaga chiqarishga imkon beruvchi turli musobaqa shakllarini tanlash maqsadga muvofiq. Musobaqalar bir oy davomida bir marta tashkil qilinishi mumkin.

Olimpiadalar ham xuddi musobaqa kabi shu maqsadni ko‘zlagan holda, undan farqli jihati qobiliyatli o‘quvchilarni mavjud sinflar orasidan aniqlab beradi. Yana bir muhim farqi, o‘quvchilarga tavsiya etilayotgan topshiriqlarning murakkabligiga ko‘ra, olimpiada maktab, tuman va shahar miqyosidagi turlarga bo‘linadi.



Informatika burchagi. Darsdan tashqari mashg‘ulotlarga nazariy va amaliy yordam berish maqsadida tashkil etiladi. Uning nomlanishi ham o‘quvchilar uchun o‘ziga xos bo‘lishi maqsadga muvofiq. Masalan, “Informatika olami”, “Yosh informatik” va boshqa. Informatika burchagini quyida nomlari keltirilgan rukunlarga ajratib, ular mazmun jihatdan mos ma’lumotlar bilan to‘ldirib boriladi.

- Kompyuterlar tarixi va rivojlanishi;
- “Bu qiziq!”;
- “Kompyuter o‘yinlari”;
- “Kompyuter bizga har ishda yordamchi”;
- “Kompyuter qanday tuzilgan?”;
- “Kim tez hisoblaydi!”.

Jumladan, “Kim tez hisoblaydi!” rukni informatika faniga doir qiziqarli misol va masalalar bilan yoritib borilib, o‘qituvchi tomonidan bajarilgan topshiriqlarni tekshirish va baholash, ruknning doimiy ishtrokchilarni dars yoki darsdan tashqari mashg‘ulotlarda rag‘batlantirib turish o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishining yanada oshishiga xizmat qiladi.

Informatika burchagi ruknlarida aks etgan ma’lumotlar mazmunini o‘qituvchi rahbarligi ostida bir oy davomida ikki marta yangilab turish maqsadga muvofiq. Tavsiya qilingan qiziqarli misol va masalalarni bajarishda o‘quvchilarda murakkabliklar sezilsa ularni soddalari bilan almashtirish tavsiya qilinadi.

Kompyuter-shou. She’r, qo‘shiq, badiiy kompozitsiyalar bilan uyg‘unlashib ketgan tarbiyaviy va ilmiy-amaliy tadbir. Tadbir sinflar yoki maktablar o‘rtasida uyushtirilishi mumkin. Qatnashuvchi har bir guruh o‘z nomi va shioriga ega bo‘lishi lozim. Guruh qatnashchilari belgilab qo‘yilgan topshiriq va vazifalarni bajarishiga ko‘ra ma’lum baholash tizim asosida xakamlar tomonidan baholanib tadbir oxirida g‘olib guruh aniqlanadi va rag‘batlantiriladi. Guruh a’zolari tomonidan bajariluvchi topshiriq

va vazifalardan namuna sifatida quyidagilarni keltirish mumkin.

- “Kimning rasmi chiroyli?”. Kompyuterda rasm chizish tanlovi;
- informatika faniga doir savol-javob;
- kompyuterda o‘yin musoboqasi;
- kompyuter va uning asosiy qurilmalarini o‘zida aks ettiruvchi she’riy yoki badiiy kompozitsiya;
- “Kompyuter bizga yordamchi” mavzusida sahna ko‘rinishi.



Tadbirni tashkil etish bevosita o'qituvchi rahbarligida amalga oshirilib, uni tayyorlash jarayonida ota-onalar ham ishtirok etishlari mumkin. Tadbir o'quv yili davomida bir marta o'tkazilishi maqsadga muvofiq.

EkskursiY. Rejalashtirilgan ekskursiyani boshlashdan avval uning tashkiliy jihatlariga o'qituvchi o'z e'tiborini qaratgan bo'lishi, ya'ni ekskursiya o'tkaziladigan kun, vaqt, joy nomi hamda undan ko'zlangan maqsad va ekskursiya taassurotlarini rasmiylashtirish yuzasidan o'quvchiga aniq ko'rsatmalar berish lozim.

Ekskursiyani kompyuter va axborot texnologiyalaridan keng ko'lamda foydalanuvchi biror tashkilot yoki korxonaga uyushtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, tijorat banki, markazlashgan tovar birjasi, markaziy kutubxona, loyihalash ishlari bilan shug'ullanuvchi institutlar va boshqa. O'quvchilar bevosita kompyuter texnikasi yordamida amalga oshirilayotgan jarayonlarni kuzatib va ularni anglash uchun soha xodimlariga turli savollar bilan murojat etishlari mumkin bo'ladi.

Barcha turli-tuman o'qitish shakllarining maqsadi bitta narsaga qaratilgan bo'lib, ya'ni fanga oid bilim va malakalarni shakllantirib qolmay, balki unga nisbatan qiziqishni orttirishdir. Shuning uchun o'qitish shakllarini tanlash ehtiyotlik bilan yondashuvni talab etadi.

Adabiyotlar:

1. Sabirov, B.T., Kadyrova, Z.R., & Tairov, S.S. (2019). Development of optimal compositions of ceramic tiles using dune sand. *Glass and Ceramics*, 75, 363-365.
2. Sabirov, B.YE. (2011). *Kompyuternoye obucheniye predmetu " Okrujayushiy mir"*. *Nachalnaya shkola*, (11), 22-24.
3. Salihanova, D.S., Eshmetov I.D., Sobirov, B.T., Agzamova, F.N., Eshmetov, R.J., & Agzamkhodjaev, A.A. (2015). Hydrochloric acid activation of bentonite clay from " jahon" deposit and using it for cottonseed oil bleach. *Europaische Fachhochschule*, (9), 64-67.
4. Sabirov, B.YE. (2023). Boshlang'ich sinf o'quvchisining informatika elementlarini o'rganishi bo'yicha o'quv faoliyati tuzilmasi. *Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, 3(7), 71-75.
5. Sabirov, B.YE. (2023). Boshlang'ich sinf matematika darslarida "protsedura"li javobga ega masalalarning o'rni va ahamiyati. *Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali*, 3(7), 27-31.
6. Inoyatova, Z., Karomatova, D., Adilova, M., & Khakimov, F. Improving the mechanisms of using digital technologies in the management of general secondary education institutions.



7. Hayitov, A., & Abdurasulova, F. (2022). Interfaol metodlar asosida boshlang 'ich sinflar darslarini samarali tashkil etish usullari. *Science and innovation*, 1(B7), 598-604.
8. Hayitov, A. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi.
9. Hayitov, A., & Mansurova, S. (2022). Integrativ yondashuv asosida boshlang'ich sinif o'quvchilarida ekologik kompetensiyalarni shakillantirishning pedagogik shart-sharoitlari. *Science and innovation*, 1(B7), 1009-1015.
10. Sadinovna, K. D. (2022). Integrative approach to forming ecological culture of future primary class teachers. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 6, 82-86.
11. Rahmatova, F., & Abrorxonova, K. (2021). Educational issues in the works of enlightened intellectuals. *Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalar*, 1(Архив№ 2).
12. Abrorkhonova, K., & Khudoyberdieva, S. (2022). VIRTUAL TOUR IN PRIMARY SCHOOL. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(06), 72-77.
13. Abrorkhonova, K., & Khudoyberdiyeva, S. (2022, June). ORGANIZATION OF EXCURSIONS IN PRIMARY SCHOOL CLASSES. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 139-143).
14. Norboy o'g'li, H. F. (2023). UMUMIY O 'RTA TA'LIM MUASSASALARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. *Journal of new century innovations*, 37(1), 44-48.